

Turkiyalik mehmonlar Xivani ziyorat qildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Rejep Tayyip Erdog'an Xivadagi Ichan qal'aga tashrif buyurdi.

Ma'lumki, ikki yetakchining ham tarixga qiziqishi, hurmati baland. Davlatimiz rahbari Turkiyaga tashrifi chog'ida Istanbuldagi Topkapi saroyini borib ko'rgan edi. Rejep Tayyip Erdog'an ilgari yurtimizga kelganida Buxoroni ziyorat qilgan.

Bu qal'a Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan-bir butun boshli shahar-yodgorlikdir. Uning «ochiq osmon ostidagi muzey» deya e'tirof etilishi shundan. Bu yerda 120 dan ziyod me'moriy obidalar bor.

Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda YuNESKO Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. 1997-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi nishonlangan.

Bu uzun tarix davomida Xiva ko'plab turkiy davlatlarning markazi bo'lgan. U 2020-yilda Turksoy xalqaro tashkiloti tomonidan Turk dunyosining madaniy poytaxti, deb e'lon qilingan.

Shu jihatdan, O'zbekiston va Turkiya Prezidentlarining bu qadimiy shaharga tashrifi katta ma'noga ega.

Mehmonlar Ichan qal'adagi Ota darvoza, Ko'k minora, Ko'hna ark saroyi va madrasalar, hunarmandlik rastalarini ko'zdan kechirdi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Juma masjidi ziyorat qilindi.

Davlat rahbarlari hunarmandlar, sayyohlar bilan samimiy suhbatlashdi.

Xorazmcha qo'shiq va raqslar ijrosi barchaga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Xivaning davlatchilik va ilm-fan rivojida tutgan o'rni, qadimiy obidalar va san'ati turkiyalik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.





Manba